



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 449 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohnbazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbeyeve Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamsiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	
Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati.....	307
Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi	
Yangi O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyoti: qiyosiy tahlilning asosiy tendentsiyalari	313
Ro'ziyeva Dilfuza Toshemirovna	
Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning muammolari va uni bartaraf etish yo'nalishlari.....	318
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi qo'shni hududlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlantiruvchi omillari	323
Sattarov R.A.	
Desentralizatsiyalangan ma'lumot almashish protokollari: IPFS, Filecoin va Arweave tahlili	328
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Transport xizmatlari ko'rsatish biznes-jarayonlarini raqamli transformasiya talablari asosida takomillashtirish.....	333
Komilov Asror Akmalovich	
Empowering the Future: Assessing the Role of Automation, Internet of Things (IoT), and Demand Management in Enhancing Energy Efficiency of Smart Grids.....	338
Khakimjanova Surayyo Khabibullayevna	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari (xalqaro va mahalliy misollar)	345
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish	352
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi	
Mijozlar tajribasini yaxshilashda raqamli integratsiya strategiyalari: "O'zbektelekom" AK tajribasi.....	358
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari.....	361
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish omili sifatida: Yevropa tajribasi.....	368
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda kichik biznes va mahalla hamkorligi modellarini takomillashtirish	373
Murotov Nodir Xujamqulovich	
Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil.....	378
Alimov Azizbek Alievich	
Bankrotlik xavfini tahlil qilish modellari.....	386
Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich	



Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni oshirishni takomillashtirish yo'llari.....	393
Burxonova Nargiza Mirshohid qizi	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida bank tizimi islohotlari va ularni boshqarish strategiyalari.....	400
Hamroyev Xurshid Jalilovich	
“Temir yo'l transportida MHXSni joriy etishning ahamiyati va milliy standartlar bilan taqqoslama tahlili”	405
Babaxalov Norbo'ta Eshnazarovich	
Banking and financial services in the process of economic development digitalization and its advantages and security of the process	409
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, Baxanurov Oqil Odil og'li	
Kichik biznesda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	416
Abduvosit Omonboyev	
“Futurologiya va mintaqaviy iqtisodiy transformatsiya: Markaziy Osiyoda O'zbekistonning strategik senariylari”	421
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.....	425
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	434
Додиев Феруз, Голышева Елена Вячеславовна	
Turistik erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish: Imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	443
Xoliqov Dostonbek Rustam o'g'li	



TURISTIK ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR



Xoliqov Dostonbek Rustam o'g'li
“Bakhmal tour” MChJ turistik tashkiloti rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik erkin iqtisodiy zonalarining iqtisodiy mohiyati va ularning milliy hamda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda bunday zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning asosiy institutsional va moliyaviy mexanizmlari, mavjud imkoniyatlari hamda tizimli muammolari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, turistik erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada samarali tashkil etish, investitsion jozibadorligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada ilgari surilgan takliflar turizm sektorini barqaror rivojlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi kutiladi.

Kalit so'zlar: turistik erkin iqtisodiy zona, investitsiya loyihalari, turizm sektori, infratuzilma rivojlanishi, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy mexanizmlar, iqtisodiy rivojlanish, sarmoyalarni jalb qilish, ma'muriy soddalashtirish.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the economic essence of tourism free economic zones and their strategic importance in national and regional economic development. The study scientifically substantiates the main institutional and financial mechanisms for implementing investment projects in such zones, as well as their opportunities and systemic challenges. Practical recommendations have been developed to enhance the efficiency of tourism free economic zone operations, increase their investment attractiveness, modernize infrastructure, and expand public-private partnership mechanisms. The proposed measures are expected to contribute to the sustainable development of the tourism sector, attract foreign investment, and fully unlock the economic potential of the regions.

Key words: tourism free economic zone, investment projects, tourism sector, infrastructure development, public-private partnership, financial mechanisms, economic development, attracting investments, administrative simplification.

Аннотация: В данной статье подробно проанализирована экономическая сущность туристических свободных экономических зон и их стратегическое значение в национальном и региональном экономическом развитии. В исследовании научно обоснованы основные институциональные и финансовые механизмы реализации инвестиционных проектов в таких зонах, их возможности и системные проблемы. Также разработаны практические рекомендации по более эффективной организации деятельности туристических свободных экономических зон, повышению их инвестиционной привлекательности, модернизации инфраструктуры и расширению механизмов государственно-частного партнёрства. Предполагается, что предложенные в статье меры будут способствовать устойчивому развитию туристического сектора, привлечению иностранных инвестиций и полному раскрытию экономического потенциала регионов.

Ключевые слова: туристическая свободная экономическая зона, инвестиционные проекты, туристический сектор, развитие инфраструктуры, государственно-частное партнёрство, финансовые механизмы, экономическое развитие, привлечение инвестиций, административное упрощение.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasining, ayniqsa, turizmning o'rni yildan yilga ortib bormoqda. Zamonaviy global tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, turizm nafaqat madaniy almashinuv va xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytiruvchi omil, balki iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksportbop xizmatlar ulushini kengaytirish hamda mahalliy infratuzilmani modernizatsiya qilishda ham kuchli iqtisodiy drayver sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro amaliyotda ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlashning samarali vositalaridan biri sifatida turistik erkin iqtisodiy zonalar (TEIZ) tashkil etish keng tarqalgan bo'lib, ular turizm sanoatida investitsiyalar oqimini rag'batlantirish va hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Erkin iqtisodiy zonalarining turizmga ixtisoslashgan shakli – ya'ni turistik EIZ – xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay soliq, bojxona va ma'muriy imtiyozlar tizimini taqdim etib, yirik turizm loyihalarini amalga oshirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bunday zonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini, odatda, zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari, etnoqishloqlar, transport-logistika infratuzilmasi, madaniy-ko'ngilochar majmualar va servis xizmatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xususan, O'zbekistonda keyingi yillarda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. 2022–2024 yillarda mamlakatning bir qator hududlarida – “Chorvoq”, “Samarqand City”, “Qo'qon” kabi turistik EIZlar tashkil etilib, ularning har biri nafaqat hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirmoqda, balki xorijiy kapital oqimi uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, TEIZ doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ularga normativ-huquqiy bazaning yetarlicha mukammal emasligi, infratuzilmaning to'liq tayyor emasligi, ma'muriy to'siqlar, byurokratik kechikishlar hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi kiradi. Ushbu omillar mavjud investitsiya salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda va turizm sektorining barqaror rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada turistik erkin iqtisodiy zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish maqsadida bir qator tadqiqot yondashuvlaridan foydalanildi. Xususan, statistik tahlil usuli orqali mavjud ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi, qiyosiy tahlil yordamida xalqaro va mahalliy tajribalar solishtirildi, tizimli tahlil orqali mavjud muammolar va imkoniyatlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, “case study” (amaliyotni o'rganish) va kuzatish usullari orqali alohida turistik EIZ loyihalarining muvaffaqiyat omillari va kamchiliklari aniqlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik EIZlar haqidagi ilmiy qarashlar, asosan, erkin iqtisodiy zonalar nazariyasidan kelib chiqqan bo'lib, ularning mohiyati va amaliyotdagi o'rni ko'plab iqtisodchilar, siyosatshunolar hamda turizm sohasi mutaxassislari tomonidan o'rganilgan. Xalqaro tajribada erkin iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi. Jahon banki, BMTning UNCTAD tashkiloti va Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi nufuzli xalqaro institutlar EIZlarni nafaqat sarmoya jalb etish, balki innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik instrument sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda EIZlar samaradorligi ularning huquqiy-me'yoriy bazasi, infratuzilma tayyorgarligi, boshqaruv tizimining moslashuvchanligi hamda investorlar uchun yaratilgan qulayliklar darajasi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi¹.

T. Farole (2011) o'zining «Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience» nomli asarida erkin iqtisodiy zonalarining turlari, shu jumladan, turizmga yo'naltirilgan shakllari haqida keng qamrovli tahlil beradi. Muallifning fikricha, EIZlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlatning siyosiy irodasiga, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga hamda huquqiy-me'yoriy muhitning barqarorligiga bevosita bog'liq. Farole o'z tadqiqotida xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilib, turizmga ixtisoslashgan EIZlar samaradorligini oshirish uchun maqsadli investitsiya strategiyalari, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirish, shuningdek, investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarining aniq va barqaror bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlaydi².

G. Qosimova o'zining “Turizm sohasida erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy maqolasida turistik EIZlar uchun xos bo'lgan qator tizimli muammolarga e'tibor qaratadi. Xususan,

- 1 World Bank. (2021). “Investment Climate in Free Economic Zones: Global Trends and Uzbekistan's Perspective”, Washington, D.C.; UNWTO. (2022). “Tourism Investment and Development in Special Economic Zones”, Madrid: United Nations World Tourism Organization Reports.
- 2 Манба: Farole, T. (2011). Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. The World Bank.



muallif infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda mavjud normativ-huquqiy bazaning amaliyot talablariga to'liq mos kelmasligini asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatadi. Qosimovaning ta'kidlashicha, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun har bir hududning mavjud turistik salohiyatiga asoslangan loyihalarni aniqlash, ularni mahalliy resurslar va an'anaviy turizm turlarini inobatga olgan holda maqsadli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan turistik EIZlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlash mumkin³.

A. Ismoilov o'zining "O'zbekistonda turistik erkin zonalarida investitsiya muhitini rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy maqolasida turistik EIZlarda mavjud sarmoyaviy muhitni chuqur tahlil qilib, undagi amaldagi to'siqlar va qo'llanilayotgan moliyaviy rag'batlantirish choralari qiyosiy jihatdan o'rganadi. Muallifning fikricha, investitsiya muhitini yanada yaxshilash uchun "bir darcha" tamoyilini to'liq raqamlashtirish, ya'ni investorlar uchun barcha ruxsatnoma va xizmatlarni yagona elektron platforma orqali tezkor taqdim etish zarur. Shuningdek, Ismoilov turistik EIZlar rivojida mahalliy hokimiyatlarning faol va tizimli ishtirokini ta'minlash, ular tomonidan investorlar bilan bevosita muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, hududning turistik brendini targ'ib qilish bo'yicha qo'shimcha tashabbuslar ilgari surishini muhim omil sifatida ko'rsatadi⁴.

Bizningcha, turistik erkin iqtisodiy zona (TEIZ) — bu maxsus iqtisodiy rejimga ega hudud bo'lib, unda turizm bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish uchun soliq, bojxona va ma'muriy imtiyozlar joriy qilinadi. Ushbu zonalarini tashkil qilishdan asosiy maqsad – turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ushbu hududlarning eksportbop turistik xizmatlar sektoriga aylanishini faollashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turistik erkin iqtisodiy zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida iqtisodiy ko'rsatkichlar, infratuzilma va bozor salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qismda O'zbekistonning erkin iqtisodiy zonalar va turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi, shu bilan birga mavjud muammolar va ularning investitsiyalarga ta'siri yoritiladi.

Ushbu zonalarida investitsiya loyihalarini nafaqat turizm infratuzilmasini yaxshilashga, balki mahalliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan integratsiyani mustahkamlashga ham xizmat qiladi. To'g'ri moliyaviy va tashkilotchilik mexanizmlari orqali TEIZlarning samaradorligini oshirish mumkin.

Quyida turistik erkin iqtisodiy zonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, salohiyati va ularga to'sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilinadi. So'nggi besh yil ichida turistik erkin iqtisodiy zonalar soni 3 dan 5 taga ko'paydi. Bu orqali sohadagi imkoniyatlar kengayganini ko'rish mumkin. Investitsiyalar hajmi 2019-yilda 150 mlrd so'mdan 2023-yilga kelib 560 mlrd so'mga yetib, 3,7 baravarga o'sdi.

1-jadval. Turistik erkin iqtisodiy zonalarida investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)

Yil	TEIZlar soni	Faol loyihalar soni	Investitsiyalar hajmi, mlrd so'm	Yangi ish o'rinlari soni
2019	3	18	150	450
2020	4	24	230	720
2021	4	31	380	950
2022	5	38	460	1 000
2023	5	43	560	1 120

Faol loyihalar soni va yaratilgan yangi ish o'rinlari ham shunga mos ravishda oshdi, bu TEIZlardagi rivojlanishni va iqtisodiy ta'sirni namoyon etadi. 2019-yilda mamlakatda uchta turistik erkin iqtisodiy zona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2020-yildan boshlab ular soni to'rt va beshtagacha ko'paydi. Bu esa davlat siyosatida turistik sohani rivojlantirishga yuqori e'tibor berilganidan dalolat beradi. Yangi TEIZlarning tashkil etilishi turistik biznes va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. 2023-yilda faol investitsiya loyihalar soni 2019-yilga nisbatan deyarli 2,5 baravarga oshgan (18 dan 43 taga). Bu ko'rsatkich turistik sohaga bo'lgan qiziqish va ishonchning ortganini anglatadi. Ko'proq loyihalar yangi turizm obyektlari, mehmonxonalar, servis xizmatlari, madaniy-ma'rifiy loyihalarni o'z ichiga oladi. 2019-yilda 150 mlrd so'm bo'lgan investitsiyalar hajmi 2023-yilga kelib 560 mlrd so'mga yetdi. Bu 3,7 baravar o'sish deganidir. Investitsiyalar hajmidagi bu ko'payish nafaqat mamlakatning investitsiya siyosatining samaradorligini, balki turistik zona infratuzilmasining rivojlanishiga ham bog'liq. Shuningdek, bu raqamlar xalqaro investorlarning O'zbekistonga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi. 2020-

3 Манба: Қосимова Г. // "Иқтисодий тараққиёт муаммолари" журналі, №4, 2022.

4 Манба: Исмоилов А. // "Инновацион ривожланиш ва инвестициялар" журналі, №3, 2023.



yilda koronavirus pandemiyasi tufayli jahon turizmida keskin pasayish kuzatildi, ammo O'zbekiston turistik erkin iqtisodiy zonalarini tezda tiklandi. TEIZlar sonining oshishi va investitsiya loyihalarining ko'payishi pandemiyaga qaramay, sektorning barqarorligi va davlatning qo'llab-quvvatlashiga ishonchni ko'rsatadi. Jadvaldagi raqamlar O'zbekistonda turistik erkin iqtisodiy zonalarining so'nggi besh yil ichida jadal rivojlanishini va ularning mamlakat iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shishini aniq ko'rsatadi. TEIZlarning soni va investitsiya loyihalari sonining oshib borishi mamlakatning turizm sektoriga qaratgan e'tiborining va strategik vazifalarning amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Yaraltilgan yangi ish o'rinlari esa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, mahalliy aholi uchun daromad manbaini kengaytirmoqda. Bu tendensiyalar O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turistik erkin iqtisodiy zonalarining muhim rolini namoyon etadi.

2-jadval. Turistik erkin iqtisodiy zonalar infratuzilmasini rivojlantirish (mlrd so'm)

Yil	Yo'llar uzunligi (km)	Energiya ta'minoti (%)	Suv va kanalizatsiya qamrovi (%)	Infratuzilmaga sarmoya (mlrd so'm)
2019	10	70	65	50
2020	20	85	75	80
2021	30	90	85	100
2022	40	100	95	110
2023	45	100	100	120

2019-yilda turistik erkin iqtisodiy zonalarda faqat 10 km yo'l mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 45 km ga yetdi. Bu esa 4,5 baravar o'sish demakdir. Yo'llar uzunligi va sifati turistik zonalariga kirish-chiqishni osonlashtirish, tovar va xizmatlarni o'z vaqtida yetkazib berish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sifatlil yo'llar turistik obyektlarga ko'proq sayyohlarni jalb qilishda ham hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

2019-yilda energiya ta'minoti qamrovi 70 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yildan boshlab 100 % ga yetkazildi. Bu esa turistik zonalaridagi korxonalar va xizmat ko'rsatish obyektlari uchun barqaror hamda uzluksiz energiya ta'minoti mavjudligini bildiradi. Barqaror energiya ta'minoti turizm sohasida sifat va ishonchni oshiradi, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Suv va kanalizatsiya tizimlari qamrovi 2019-yilda 65 % bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 100 % ga yetdi. Ushbu ko'rsatkich sayyohlar va korxonalar uchun asosiy sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Infratuzilma sifatining oshishi, ayniqsa, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun dolzarbdir.

Infratuzilmaga yo'naltirilgan sarmoyalar 2019-yilda 50 mlrd so'mdan 2023-yilda 120 mlrd so'mga oshdi, ya'ni 2,4 baravarga ko'paydi. Bu ko'rsatkich davlat va xususiy sektorning turistik erkin iqtisodiy zonalar infratuzilmasini rivojlantirishga qaratgan yuksak e'tiborini yaqqol aks ettiradi. Investitsiyalar, asosan, yo'lsozlik, energetika, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Infratuzilmaning rivojlanishi turistik erkin iqtisodiy zonalarining samarali faoliyat yuritishi va investitsiyalarni jalb etish uchun mustahkam poydevor hisoblanadi.

2019–2023-yillar oralig'ida yo'llar uzunligi, energiya va suv ta'minoti qamrovi sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa turistik zonalariga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining hamda investitsiya loyihalarining ko'payishiga zamin yaratdi. Infratuzilmaga yo'naltirilgan sarmoyalar hajmining oshishi sohaning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar:

Moliyaviy resurslarning yetishmasligi. Turistik erkin iqtisodiy zonalarida investitsiyalarni jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab etiladi. So'nggi yillarda ayrim loyihalar uchun zarur mablag'larning yetishmasligi kuzatilmoqda. Bu holat, ayniqsa, kichik va o'rta biznes sub'yektlari uchun jiddiy muammo bo'lib, ular uchun kreditlar va investitsiya mablag'larini topish murakkab kechmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalar va grantlar hajmi cheklanganligi bois, xususiy sektorni yanada rag'batlantirish zarur.

Ma'muriy to'siqlar va byurokratiya. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida ma'muriy to'siqlar, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kechikishlar va byurokratik muammolar uchramoqda. Bu jarayon investorlardan qo'shimcha vaqt va mablag' talab qiladi hamda loyihalarining amalga oshirish muddatini uzaytiradi. Ba'zi holatlarda huquqiy me'yorlarning aniq belgilab qo'yilmaganligi va tegishli idoralar o'rtasidagi hamkorlikning sustligi investorlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Kadrlar tanqisligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi. Turizm sohasi va unga bog'liq xizmatlarda yuqori malakali kadrlar zarur. Biroq turistik erkin iqtisodiy zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda yetarli



darajadagi kasbiy mahoratga ega mutaxassislar yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa xizmat sifati va sektorning rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimlarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Infratuzilmani yangilash va modernizatsiya qilishdagi muammolar. Ayrim turistik erkin iqtisodiy zonalarda infratuzilma elementlari, xususan, yo'llar, suv va energiya ta'minoti tizimlari yetarli darajada modernizatsiya qilinmagan yoki ularning texnik holati o'rtacha darajada. Bu esa sayyohlar uchun qulayliklar darajasini pasaytirishi va loyihalarni amalga oshirish samaradorligini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun infratuzilmaga investitsiyalarni jalb qilish va samarali boshqaruv tizimlarini yaratish zarur.

Xalqaro raqobatning kuchayishi. Turistik erkin iqtisodiy zonalar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishlari uchun samarali marketing va reklama strategiyalarini amalga oshirishlari lozim. Ammo ba'zi hollarda marketing strategiyalarining to'liq emasligi, xalqaro miqyosdagi reklama kampaniyalarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi hamda targ'ibot-tashviqot ishlarining sustligi sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuqorida keltirilgan muammolar turistik erkin iqtisodiy zonalarining barqaror va samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda marketing sohasidagi ishlarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Turistik erkin iqtisodiy zonalaridagi muammolarni hal etish uchun aniq mexanizmlar

Investitsiyalarni jalb qilish uchun maxsus soliq va kredit rejimlarini joriy etish.

Turistik erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar uchun 5 yillik soliq imtiyozlari taqdim etish (korporativ soliq, QQS va import boji bo'yicha).

Xususiy va xorijiy investorlar uchun imtiyozli kreditlar berish (masalan, bozor stavkasidan past foizli kreditlar).

Davlat kafolati asosida kredit liniyalarini tashkil etish va investorlarning moliyaviy xavflarini kamaytirish.

Infratuzilma loyihalari uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelini keng joriy etish.

Yo'llar, suv ta'minoti, elektr energiyasi va kanalizatsiya obyektlarini qurishda xususiy investorlarga keng imkoniyat yaratish.

Davlat tomonidan loyihalarning moliyaviy xavfini qisqartirish maqsadida kafolatlar va subsidiyalar berish.

DXSh shartnomalari asosida infratuzilma obyektlarini barqaror ekspluatatsiya qilish va samarali boshqarish.

Mazkur takliflar amaliyotga tatbiq etilganda turistik erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti yaxshilanadi, ma'muriy to'siqlar kamayadi, malakali kadrlar tayyorlanadi, infratuzilma sifatli va zamonaviy darajaga yetkaziladi hamda xalqaro maydonda kengroq tanilish imkoniyati yaratiladi. Natijada umumiy iqtisodiy o'sish va barqaror turizm rivojlanishiga xizmat qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turistik erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish — mamlakat turizm sektori va umuman iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. 2019–2023-yillar davomida bu zonalarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari infratuzilmani sezilarli darajada yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va milliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qildi. Jadval va tahlillar shuni ko'rsatadiki, infratuzilma, energiya ta'minoti va suv xizmatlari sohalarida sezilarli o'sish va modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilgan, shu bilan birga investitsiyalar hajmi barqaror ortib borgan.

Biroq, samarali rivojlanish yo'lida moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ma'muriy byurokratiya, malakali kadrlar tanqisligi, infratuzilma modernizatsiyasidagi cheklovlar va xalqaro raqobatga mos marketing faoliyatining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani kabi muammolar mavjud. Ushbu masalalar tizimli yechimlarni talab etadi.

Mazkur maqolada taqdim etilgan mexanizmlar — investitsiyalarni jalb qilish uchun maxsus soliq va kredit rejimlarini joriy etish, ma'muriy jarayonlarni raqamlashtirish va soddalashtirish, kadrlar tayyorlashda davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish, infratuzilma loyihalarida DXSh modelini keng qo'llash hamda xalqaro maydonda samarali targ'ibot olib borish uchun raqamli marketing platformalarini yaratish — muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ushbu chora-tadbirlar turizm sohasidagi investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga zamin yaratadi. Natijada, turistik erkin iqtisodiy zonalar nafaqat milliy va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlaydi, balki O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi ijobiy imijini kuchaytiradi.

Turistik erkin iqtisodiy zonalarining investitsiya salohiyatidan to'laonli foydalanish uchun integratsiyalashgan yondashuv va davlat, xususiy sektor hamda boshqa manfaatdor tomonlarning faol hamkorligi zarur. Faqat shundagina mamlakat turizm sektori haqiqiy iqtisodiy kuchga aylanadi va uzoq muddatli, barqaror o'sish sur'atlariga erishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Farole, T. (2011). *Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience*. Washington, DC: The World Bank.
2. Qosimova, G. (2020). "Turizm sohasida erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanish istiqbollari". *Iqtisodiyot va ta'lim* jurnali, №4, 45–51-betlar.
3. Ismoilov, A. (2021). "O'zbekistonda turistik erkin zonalarida investitsiya muhitini rivojlantirish". *Moliyaviy va iqtisodiy tadqiqotlar* jurnali, №2, 60–68-betlar.
4. Jahon banki (2022). *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts and Policy Implications*. Washington, DC: The World Bank Group.
5. UNCTAD (2023). *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*. New York and Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.
6. Xalqaro valyuta jamg'armasi (2022). *World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis*. Washington, DC: IMF.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4086-son qarori "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
